

ENG QADIMGI DAVRLARDA TA'LIM-TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKRLAR

Kamolova Mashhura Otobek qizi

Navoiy shahar

Alisher Navoiy nomidagi IDUM

ingliz tili fani o'qituvchisi

kamolovamashhura55@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada insoniyat jamiyatining ilk bosqichlarida ta'limgarbiya jarayonining shakllanishi va rivojlanishi, qadimgi davrlarda bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashdagi an'anaviy usullar, shuningdek, o'sha davrlarga oid pedagogik qarashlar tahlil qilinadi. Qadimgi Sharq, Yunoniston va Rimdagi pedagogik meros, ularning hozirgi ta'limgarbiya tizimiga ta'siri yoritiladi. Maqola qadimiy madaniyatlarda axloqiy, mehnat va harbiy tarbiyaning ustuvor yo'naliш bo'lganligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ta'limgarbiya, qadimgi davrlar, pedagogik fikrlar, qadimgi Sharq, Yunoniston, Rim, tarbiya usullari, ijtimoiylashuv, axloqiy tarbiya, tarixiy tajriba.

Insoniyat jamiyat tarixida ta'limgarbiya muhim o'rinni tutib kelgan. Qadimgi davrlarda ham bolalarni jamiyatga moslashtirish, mehnat va hayot faoliyatiga tayyorlash ehtiyoji mavjud bo'lgan. Shunday ekan, ilk ijtimoiy tuzumlardayoq ta'limgarbiya tizimi shakllanib, o'ziga xos shakl va usullarni egallagan.

Ma'lumki, kishilik jamiyatining vujudga kelishi jarayonida inson ham biologik jihatdan, ham ijtimoiy jihatdan takomillashib borgan. Dastlabki diniy e'tiqodlar, eng oddiy ixtirolarning takomillashib borishi kabi holatlar inson ongingin ham shakllanib borishiga turki bo'ldi. Bu jarayon minglab yillarni o'z ichiga olgan bo'lib, ana shu davrda inson ongi shakllanishining asosi sifatida qabul qilingan xulq-odob qoidalari, ijtimoiy talablar yuzaga kelgan. Ushbu talablar muayyan davrda yaratilgan yodgorliklarining asosiy mazmuni va mohiyatini tashkil etadi.

Eramizdan oldingi I ming yillik o'rtalariga kelib, oromiy yozuvi negizida Ovisto, Xorazm, so'g'd, Kushon, run (Urxun-Enasoy), uyg'ur va boshqa yozuvlar paydo bo'ladi va ta'limgarbiyaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xitoyda qog'ozning ixtiro etilishi, Hindistonda hisoblash, o'nlik sonlarning paydo bo'lishi, Mesopotamiyada yer kurrasining graduslarga, sutkani soatlarga, minut va sekundlarga bo'lishning o'ylab topilishi ta'limgarbiya sohasi uchun muhim yangilik bo'ladi.

Eng qadimgi xalq og'zaki ijodiyoti yodgorliklarida inson tarbiyasiga oid fikrlar. Bugungi o'zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha ming yillar oldinhayot kechirgan bo'lib, ular o'ziga xos madaniyatni vujudga keltirishda katta va mas'uliyatli yo'lni

bosib o'tgan. Birinchi tosh qurollardan tirikchilik uchun foydalanish, ancha takomillashgan mehnat qurollarini yasash, urug'chilik davriga kelib, xo'jalik hayoti va madaniy taraqqiyotda erishilgan yutuqlarni o'z ichiga olgan davrgacha bo'lgan tariximiz bobokalonlarimizning boy qadimiylari madaniyatga ega ekanligidan darak beradi.

Markaziy Osiyodagi arxeologik topilmalar va yozma manbalarning guvohlik berishicha, dastlabki ibtidoiy jamoa va keyinchalik quzdorlik tuzumi davrida ham Turon hududida ijtimoiy-madaniy hayot rivojlangan. Ayniqsa, Qadimgi Xorazm, Farg'ona, Zarafshon vodiylarida dehqonchilik, hunarmandchilik va me'morchilik madaniyati jahonga ma'lum va mashhur bo'lgan. Quzdorlik tuzumining dastlabki bosqichlaridanoq, Turon zaminida xalqlarning ma'naviy va ma'rifiy hayotida hamda diniy e'tiqodlarida ham katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ayni paytda, o'ziga xos turmush tarzi, an'ana, rasm- rusumlar, urf-odatlar hamda ta'lim-tarbiya shakllandi.

Eng qadimgi tarbiya haqidagi yodgorliklar bugungi avlodgacha bevosita yetib kelmag'an. Turkiy va forsiyzabon xalqlarning hayot kechirish san'ati, donolik majmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda bo'lishning namunasi tarzida e'tirof etilgan ma'naviy madaniyat yodgorliklari qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning "Tarix", Strabonning "Geografiya" hamda Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" kabi asarlari, O'rxun-Enasoy bitiklari kabi adabiy-tarixiy manbalarda saqlangan. Ushbu yodgorliklar mohiyatini o'rganish insonning shakllanishida moddiy va ma'naviy madaniyat qay darajada katta o'rin olganligidan xabar beradi. Aksariyat afsonalarning qahramonlarini inson sifatida gavdalangan xudolar tashkil etgan. Ibtidoiy tuzum kishilarining orzu-istiklari, o'y-fikrlari, maqsad va intilishlarini yoritishga xizmat qilgan afsonalaming ko'pchiligi bizga eng qadimgi yodgorliklar – "Avesto", Firdavsiyning "Shohnoma" asarlari orqali ma'lumdir. "Avesto" kim tomonidan yaratilgani borasida turli fikrlar mavjud bo'lib, mashhur sharqshunos olim E.E. Bertelsning fikriga ko'ra, asar 1278-yilda Zardusht ibn Bahrom ibn Pajdu degan kishi tomonidan yaratilgan. Mazkur fikr "Zardushtnomma" dostonida bayon etilgan ayrim qarashlar asosida paydo bo'lgan.¹

Qadimgi Sharq — Misr, Bobil, Xitoy va Hindistonda ta'lim diniy va amaliy yo'nalishda olib borilgan. Misrda bolalar yozuv, matematika va axloqiy me'yirlarga o'rgatilgan. Xitoya Konfutsiy ta'limoti asosida odob-axloq, kattalarga hurmat, ijtimoiy mas'uliyat targ'ib qilingan. Bu davrda tarbiyaning asosiy maqsadi itoatkor, mehnatkash va jamiyat qoidalariga mos shaxsni shakllantirish bo'lgan.

Qadimgi Yunoniston taraqqiy etgan madaniyat va falsafiy qarashlari bilan ajralib turadi. Bu yerda ta'lim-tarbiya davlat siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Platon va Aristotel kabi mutafakkirlar pedagogik fikrlarni ilmiy asoslashga

¹ Musurmonova A. va boshqalar. Umumiy pedagogika. O'quv qo'llanma. «Ozkitobsavdonashriyoti», 2020. 399-bet.

harakat qilishgan. Platonning "Davlat" asarida ideal shaxs va tarbiya modeli bayon qilingan bo'lib, u bolalarni yoshiga qarab bosqichma-bosqich rivojlantirishni taklif qiladi.

Qadimgi Rimda ta'lim-tarbiya amaliyotga asoslangan bo'lib, harbiy tayyorgarlik va fuqarolik burchiga e'tibor berilgan. Rimliklar bolalarni qat'iyatli, intizomli, qonunlarga itoat qiluvchi qilib tarbiyalashni muhim deb bilishgan. Shuningdek, notiqlik san'ati, tarix va huquq asoslarini o'rgatish keng tarqalgan edi.

Qadimgi davrda din ta'lim va tarbiyaning asosiy manbai bo'lib xizmat qilgan. Diniy e'tiqodlar orqali bolalarga axloqiy mezonlar, yaxshilik va yomonlik orasidagi farqlar o'rgatilgan. Bu esa ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynagan.

Xulosa qilib aytganda, Eng qadimgi davrlarda shakllangan ta'lim-tarbiya tizimi bugungi zamonaviy pedagogika asoslarining ildizini tashkil etadi. O'sha davrlarda vujudga kelgan axloqiy, jismoniy va intellektual tarbiya tamoyillari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Qadimiy pedagogik qarashlarni o'rganish — hozirgi ta'lim tizimini yanada takomillashtirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: “Sano-standart” nashriyoti 2017, 417- bet.
2. Musurmonova A. va boshqalar. Umumiy pedagogika. O'quv qo'llanma. «Ozkitobsavdonashriyoti», 2020. 399-bet.
3. Krivshenko L.P. Pedagogika. 2-ye izdanie. Uchebnik dlya bakalavrov (Russian Edition), Izdatelstvo “Prospekt» (December 10, 2019), 756-str.
4. Sandra P.A. Robinson, Verna Knight. Handbook of research on Critical Thinking and Teacher Education Pedagogy. IGI Global; 2019. 446 pages.
5. Xutorskoy A.V. Pedagogika. Uchebnik dlya vuzov. Standart tretego pokoleniya. – SPb: Piter. 2019. – 608 ss.il – (Seriya «Uchebnik dlya vuzov»).